



## SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN AYLANMANI QISQARTIRISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.susta.019>

**Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li,**

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi*

*Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti*

*bo'lim boshlig'i o'rinbosari,*

*Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 505 trln so'mdan oshgan.[1]

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot (Yashirin iqtisodiyot) rasmiy statistika to'liq qamrab ololmaydigan iqtisodiy faoliyat qismini o'z ichiga oladi. U noformal sektor hamda xufyona iqtisodiyotdan iborat.

Norasmiy iqtisodiyot deganda davlat tomonidan belgilangan tartibda rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan kichik biznes va xizmat faoliyatlari tushuniladi. Bunday faoliyat turlariga uy sharoitida kiyim-kechak tikish, litsenziyasiz taksi xizmati ko'rsatish yoki tegishli ruxsatnomalarsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kabi misollarni keltirish mumkin.

Xufyona iqtisodiyot esa qonunan ruxsat etilgan, ammo davlat organlaridan yashiriladigan iqtisodiy faoliyatni qamrab oladi. Xususan, ayrim tadbirkorlik subyektlari soliq yukini kamaytirish maqsadida daromadlarining ma'lum qismini deklaratsiya qilmasligi, shuningdek, ish beruvchilar tomonidan ish haqining rasmiy hisobotlarda aks ettirilmasdan "konvert" usulida to'lanishi xufyona iqtisodiyotning asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yil yakunlariga ko'ra 34,8 foizni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich pul ifodasida 505,65 trln so'mga, ya'ni qariyb 40 milliard AQSH dollariga tengdir. Ushbu hajmning 383,64 trln so'mi (YAIMning 26,4 foizi) norasmiy sektor hissasiga, 122 trln so'mi (8,4 foizi) esa xufyona iqtisodiyotga to'g'ri keladi. *Ma'lumot uchun: 2024-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 6,5% ga o'sib, 1,45 kvadrillion so'mni (taqriban 115 milliard dollar) tashkil etdi.*

Chakana savdo aylanmasi savdo sohasida aholining yakuniy iste'moli uchun mo'ljallangan tovarlarni donalab yoki nisbatan kam miqdorlarda, naqd pul hamda bank kartalari orqali sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat turi sifatida ta'riflanadi.



2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, chakana savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni jami 80 118 tani tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 319 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni esa 79 799 tani tashkil qildi. Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) hamda uyushmagan savdo bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha kuzatuvlar asosida to'plangan ma'lumotlar ham chakana savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda inobatga olingan.

So'nggi besh yillik davrda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda qayd etildi. Jumladan, ushbu yilda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan 117,0 foizni tashkil etgan.

### **Xalqaro tajriba.**

Fransiyada naqd puldan foydalanishga nisbatan muayyan cheklovlar joriy etilgan bo'lib, belgilangan me'yorlardan ortiq miqdorda naqd hisob-kitoblarni amalga oshirish taqiqlanadi. Mazkur cheklovlar naqd pul aylanmasi hamda yashirin savdo hajmini qisqartirishga qaratilgan samarali chora sifatida xizmat qiladi.[3]

1-jadval

### **Fransiyada naqd puldan foydalanishga o'rnatilgan cheklovlar**

| T/r | To'lov subyekti           | Naqd pul cheklov miqdori |
|-----|---------------------------|--------------------------|
| 1   | Fransiya rezidenti uchun  | 1 000 € gacha            |
| 2   | Turistlar (nerezidentlar) | 10 000 € gacha           |

Manba: [www.frenchentree.com/news/cash-payments-in-france-restricted-to-e1000](http://www.frenchentree.com/news/cash-payments-in-france-restricted-to-e1000)

Fransiyada yashirin iqtisodiyot darajasi YAIMning  $\approx 11-12\%$  tashkil etmoqda. 2000-yillarda  $18\%$  bo'lgan yashirin iqtisodiyot darajasi cheklovlar hisobiga pasaytirilib, naqd puldagi to'lovlar umumiy to'lovlardan  $19\%$  gacha pasaygan.

2-jadval

### **Boshqa Yevropa mamlakatlaridagi naqd to'lovga cheklovlar:[4]**

| T/r | Davlat nomi | Naqd pul to'lov cheklovi |
|-----|-------------|--------------------------|
| 1   | Belgiya     | 3 000 €                  |
| 2   | Italiya     | 1 000 €                  |
| 3   | Xorvatiya   | 15 000 €                 |
| 4   | Ispaniya    | 1 000 €                  |
| 5   | Portugaliya | 3 000 €                  |



|   |         |         |
|---|---------|---------|
| 6 | Latviya | 7 200 € |
|---|---------|---------|

*Manba:* [www.europe-consommateurs.eu/en/shopping-internet/cash-payment-limitations.html#:~:text=The%20new%20cash%20limit%20is,how%20it%20is%20in%20France.](http://www.europe-consommateurs.eu/en/shopping-internet/cash-payment-limitations.html#:~:text=The%20new%20cash%20limit%20is,how%20it%20is%20in%20France.)

Dunyo tajribasi ko'rsatib turibdiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu kompleks yondashuv O'zbekiston sharoitida ham qo'llanilishi mumkin: huquqiy tartibga solish, raqamli nazorat texnologiyalari va qat'iy soliq nazorati amaliyoti bir-birini to'ldirgan taqdirdagina chakana savdo sohasidagi norasmiy faoliyat sezilarli darajada qisqaradi.

Chakana savdo sohasida norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

1. Chakana savdo sohasida naqd pul bilan savdo qilishda maksimal chegaraviy me'yorni belgilash;
2. Har oy yakuni bo'yicha naqd pulsiz savdo 80 foizdan ortiq bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozini berish va barqarorlik reytingiga alohida ball berish tizimini joriy etish;
3. Xaridor naqdsiz to'lov qilganida amaldagi 1 foiz keshbek summasini 3 foizga oshirish;
4. Chakana savdo nuqtalarida xaridorlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda mobil ilovalar orqali "Joyida to'lovni amalga oshirish" imkoniyatiga ega (QR kod, NFC to'lov) tizimni hamda ushbu tizimlar orqali onlayn to'lov amalga oshirilganida tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish mexanizmini joriy etish;
5. Bir oy davomida fuqaroning plastik kartochkasidan 30 ta va undan ortiq tranzaksiya amalga oshirilganida yoki 30 mln.so'mdan ortiq summa kelib tushganda plastik kartochka egasi to'g'risidagi ma'lumotlarni Markaziy bank Soliq qo'mitasiga taqdim etish.

Bunda:

to'lov tashkilotlari (*Payme, Click va boshqa mobil ilovalar*)ga fuqaro plastik kartochkasidan to'lovni amalga oshirayotganida to'lov maqsadi (*xarid, qarz, xayriya va boshqalar*)ni ko'rsatish majburiy katakchasini yaratish vazifasini yuklash;

to'lov tashkilotlari zimmasiga fuqaro plastik kartochkasidan to'lovni amalga oshirayotganida ko'rsatilgan to'lov maqsadidan faqat xarid uchun amalga oshirilgan to'lov to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni Markaziy bankga taqdim etish majburiyatini yuklash;

6. Soliq qo'mitasi ushbu ma'lumotlarga aniqlik kiritgan holda deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo'lga qo'yish;

7. Soliq qo'mitasi xarid uchun amalga oshirilgan to'lov to'g'risidagi ma'lumotlarga



asosan, xaridni qabul qilgan fuqaroga nisbatan Soliq kodeksi 221-moddasida nazarda tutilgan chek bermaslik holati sifatida baholash.

Bunda:

birinchi marta aniqlangan taqdirda, fuqaroga tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirish bo'yicha rasmiy ogohlantirish;

ushbu huquqbuzarlik bir yil ichida takrorlangan taqdirda 5 mln.so'm miqdorida jarima qo'llash tizimini joriy etish;

8. Amalga oshirilgan xarid yoki ko'rsatilgan xizmat uchun fuqaroning plastik kartochoxasidan boshqa bir fuqaroning plastik kartochoxasiga (P2P) o'tkazish holati bo'yicha Soliq kodeksiga alohida javobgarlik choralari kiritish.

9. Iqtisodiyotning ma'lum sohalariga majburiy tartibda naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirishni joriy etish.

Xususan, aholining birinchi ehtiyoji bilan bog'liq bo'lmagan sohalar, qurilish mollari, maishiy texnika, avtomobil ehtiyot qismlari, elektrotexnika mahsulotlari, gilam mahsulotlari, to'yxonalar hamda to'y o'tkazish xizmatlari.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 505 trln so'mdan oshdi// <https://www.uzdaily.uz/uz/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-hajmi-505-trln-somdan-oshdi>

2. O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi (2024-yil yanvar-dekabr)// <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59513-o-zbekiston-respublikasida-chakana-va-ulgurji-savdo-tovar-aylanmasi-2024-yil-yanvar-noyabr-2>

3. Cash Payments in France Restricted to €1,000// <https://www.frenchentree.com/news/cash-payments-in-france-restricted-to-e1000>

4. Paying in cash: limits in Europe// <https://www.europe-consommateurs.eu/en/shopping-internet/cash-payment-limitations.html#:~:text=The%20new%20cash%20limit%20is,how%20it%20is%20in%20France>.